

AHOLINI BANDLIGINI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

Berdishukurov Dilmurod Abdurasulovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada hududlarda bandlini ta'minlashda xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. Umumiy olganda kichik beznis, xususiy tadbirkorlikni o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qay tarzda yanada isloh qilish, yanada barqarorlashtirish va hozirgi kundagi xususiy korxonalarining o'sgani, kichik biznes salohiyatining qay darajada ko'tarilgani, yangi ish o'rinlari yaratilganligi haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: kichik beznis, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlikni o'sishi, , yangi ish o'rinlari, bandlik, klastr, ekonometrik tahlil.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda 2022—2026-yillarga mo'ljallangan, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida[1].

Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PF- 5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta

capital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin. Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo'naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko'rsatish hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko'rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat kata ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasida statistik tahlil va ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar amalga oshirildi. Tadqiqotda O'zbekiston hududlari bo'yicha aholi bandligini oshirish, kambag'allik ko'rsatkichlarini kamaytirish, jumladan kichik beznis, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari tahlil qilindi. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasiga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar ishlar huquqshunos olim B.Ibratov tomonidan olib borildi.

U tadbirkorning barcha harakatlari asosan bozor imkoniyatlarini tahlil qilish, undan foydalanish, novatorlik g'oyalarini amalga oshirishdan iborat ekanligin asoslab, tadbirkorning kapitalistik ekspluatatorlik mohiyatiga olib keluvchi an'anaviy sinfiy ta'ri-fi emas, balki, uni inson faoliyatining shu sohadagi funksiyasi bo'lib, uning jamiyatdagi tutgan o'rni va ijtimoiy ahamiyatiga e'tiborni qaratish lozimligini tushuntiradi. Shuningdek, tadbirkor bozor iqtisodiyotining alohida bo'g'inlaridatakrorish-lab chiqarish borasida xizmat ko'rsatuvchi tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa xo'jalik munosabatlarining majmuidir deb ta'riflaydi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes ombudsman) lavozimi joriy qilindi. Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llabquvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yilib, unga 200 milliard so'm va 50 million dollar mablag' ajratildi.

Shu bilan bir qatorda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi. Bunday amaliy choralar o'z natijasini bermoqda. Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo'jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta'minlamoqda. Ko'pgina viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to'g'ri keladi.(4)

O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi ochiq tashqi siyosatli, barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolar jamiyatini qurish hisoblanadi. Respublikada bozor qayta o'zgartirishlari qat'iy va izchil

amalga oshirilmoqda. Shu sababli ham, Respublikimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi sharoitlar yaratilgan:

1. Kichik biznes subyektlarining ro'yxatdan o'tish vaqti 30 daqiqani tashkil etadi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish uchun faqat bir dona, yuridik shaxs sifatida kichik korxonani ro'yxatga olishda esa - ikki dona hujjat talab etiladi.

2. Deyarli barcha tarmoqdagi kichik korxonalar kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning muhim omili hisoblanadigan yagona soliq to'lovi stavkasi, realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar hajmining 5% ni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda kichik biznes subyektlari uchun yagona ijtimoiy to'lovning amaldagi stavkasi 15% ni tashkil etadi.

3. Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalariga besh yil davomida ular ro'yxatdan o'tgan kunidagi soliq va majburiy to'lovlar stavkasini qo'llash huquqi beriladi. 2018-yildan boshlab 1 gektardan ko'proq yer maydoniga ega bo'lgan kichik korxonalar yagona yer solig'i to'lashi belgilab qo'yildi.

4. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'llar orqali amalga oshirilmoqda: banklar tomonidan imtiyozli stavkalar bo'yicha kreditlar berish; tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tadbirkorlik faoliyatiga berilgan kredit mablag'larining 50% miqdoridagi kafillik va tijorat banklari kreditlari bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlarini qoplash.

5. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ma'sul institut tomonidan biznes manfaatlarini himoyalangan. O'zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirish bekor qilindi, shuningdek birinchi marta sodir etilgan moliyaviy-xo'jalik huquqbuzarlik uchun tadbirkorlik subyektlari ma'muriy jarimalarning barcha turlaridan ozod etilgan.

6. Respublikaning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi "yagona darcha" tamoyili ostida faoliyat ko'rsatadigan markazlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi markazlar tashkil qilingan. Tadbirkorlik faoliyatini endi boshlovchi subyektlar uchun o'zlarining biznes rejalarini tuzish, huquqiy va amaliy ko'mak berish, shuningdek faoliyatlari uchun zarur ma'lumotlarni olishlari uchun "biznes-inkubatorlar" tashkil etilgan.

7. Respublika bo'yicha tadbirkorlarga biznes yuritish bo'yicha o'quv kurslari, xususiylashtirilgan obyektlar bazasida loyihalar amalga oshirish, 5 yil muddatga nol stavkada ijara asosida yer maydonlari ajratish orqali yosh tadbirkorlar uchun klasterlar tashkil etildi. (5)

Shu bilan bir qatorda kichik biznes salohiyatini to'liq amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan muammolarni ta'kidlab o'tishimiz lozim. Kichik biznesda bandlarning 62 foizidan ko'prog'i yakka tartibdagi tadbirkorlikda band bo'lsa, atigi 16 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalarga to'g'ri kelmoqda.

Kichik korxonalarining bandlikdagi past darajalari Navoiy (11,3%), Qashqadaryo (12,4%) va Toshkent viloyatiga (13,2%) to'g'ri kelmoqda. Kichik biznesda bandlarning 34,2 foizi qishloq xo'jaligida, 12,7 foizi - sanoatda, 11,6 foizi qurilishda, savdoda 13,4 foizi va 28,1 foizi xizmatlar sohasida band. Yuqoridagi bandlarning tarmoqlar kesimidagi tahlilidan ko'rinib turibdiki, boshqa tarmoqlarga nisbatan yaratilayotgan ish o'rinlari samaradorligi yuqori

bo'lgan sanoat tarmog'ida kichik biznesning nisbatan past darajadagi o'rnini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu ko'rsatkichni hozirgi o'sish darajasining saqlanib qolishi kelgusida aholining ish haqi va tadbirkorlik faoliyatidan oladigan real daromadlarining oshishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat davlatning aholiga ajratadigan ijtimoiy kafolatlarini cheklashga olib kelishi mumkin.

Qo'shimcha qilinadigan bo'lsa, kichik biznes subyektlari sonining savdodagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasida esa, 20,2%ni kichik biznes va mikrofirmalarning ulushi tashkil etgan bo'lsa, yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi 69,4% ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin, bu bank sektoriga pul tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kichik biznes subyektlarining soliq solinadigan bazasida nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi.

Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida, Jahon bankining "Biznes yuritish - 2020" hisobotida O'zbekiston 7 pog'onaga ko'tarilib, 69-o'rinni egalladi va dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan joy oldi.(7) Yangi korxonalar ochish qulayligi bo'yicha yurtimiz ilk bor dunyoda sakkizinchi o'ringa ko'tarildi. Bunday imkoniyatlar natijasida joriy yilning o'tgan 10 oyida 91 mingta yoki 2018- yilgiga nisbatan 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi.(8) Lekin hali soha rivoji yo'lida qilinadigan ishlar ham ko'pligini ta'kidlash joizdir.

Jumladan, "Biznes yuritish - 2020" hisobotida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, jumladan, yer ajratish, qurilish va mol-mulkni ro'yxatga olish borasida qulayliklar yaratish kerak. Shu bois ham tadbirkorlarga yerni onlayn auksion orqali berish, mulkni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha idoralararo elektron axborot almashuvini ta'minlash zarurdir. Xorijiy tajriba asosida, mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan mustaqil o'tkazishga mas'ul alohida tuzilma tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali bandlikni ta'minlash mumkin bo'lib, bu faqat iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat ish o'rinlarini yaratish, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish kabi muhim jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik esa bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi. Xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va bandlikni ta'minlashda ko'plab omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Soliq siyosati, huquqiy muhit, infratuzilma, malakali kadrlar, innovatsiyalar, bozor sharoitlari, davlat qo'llab-quvvatlashi va ijtimoiy omillar kabi faktlar tadbirkorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun, ushbu omillarni birgalikda va samarali boshqarish bandlikni ta'minlashda va iqtisodiy o'sishda asosiy rol o'ynaydi. Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar

o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega.

Ushbu chora-tadbirlarini samarali kichik biznes sohasida ko'proq ish o'rnini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berib, mamkakatni eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.04.2022 yildagi PF-101-son. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5947775?ONDATE=09.04.2022%2000>

2. Raximov, A. N. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 43-48.

3. Raximov, A., & Eshonqulov, j. (2022). Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning iqtisodiy quvvatini oshirish mexanizmi. Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(6), 390-395.

4. Farrux, J., & G'ayrat, A. (2023). Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ilg'or jahon tajribasi va ularni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 264-275.

5. Maxmatqulov, G. X. (2023). Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy uslubiy yondoshuvlari. Innovative Development in Educational Activities, 2 (9), 378-386.

6. Muhammadiyevich, R. A. (2023). Yashash joy (mehmonxona) va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatishning ichki va tashqi omillari hamda texnik-iqtisodiy sifat darajasi baholash. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(11), 163-166.

7. Махматкулова, Г. X. (2024). Raqamli transformatsiyaning savdo xizmatlarida urni. Innovation in the modern education system, 5(45), 122-131.

8. Aralov G'ayrat Muhammadiyevich (2024). Mehnat bozorini optimallashtirishning zamonaviy uslubiyoti. Analysis of modern science and innovation, Vol. 1 No. 1, 89-92.

9. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(6), 245-250.

10. Sul'tonov, S. N. (2024). Aholini o'sib borishi va ularning daromadlari tabaqalashuvini kamaytirish islohatlari takomillashtirish yo'nalishlari. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 295-303.

11. Султонов, С. (2024). Aholi daromadlari tabaqalashuvini kamaytirish borasidagi islohatlarni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 526-532.
12. Джораев, ФДС, и Нормуролович, СС (2024). Agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini djoriy kilish, mahalliy maxsullarning rakobatdoshligini oshirish. Журнал инноваций в научных и образовательных исследованиях , 7 (11), 158-163.
13. Khudoyorov, L. N., Noraliyeva, S. S., & Вахронова, N. S. (2024). Development of digital economy and its role today. Экономика и социум, (5-1 (120)), 432-434.
14. Khudoyorov, L. N. (2023). The objective necessity of modeling the level of growth in ensuring the development of small business. Экономика и социум, (6-1 (109)), 225-227.
15. Рахимов, А. N. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 43-48.
16. Рахимов, А. Н., Лукманов М. Х. (2023). Sanoat korxonalarini fooliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning ekonometrik modeli. Научный импульс , 1 (9), 72-80.